

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XOROJIY TIL
O'RGAТИSHDA INTERFAOL USULLAR**

Sharifkulova Mahliyo Shavkatovna

Samarqand Davlat Chet tillari Instituti

Ingliz tili II fakulteti MBT yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarga turli qiziqarli o'qitish metodlari orqali chet tilini o'rnatish haqida boshlang'ich taasurotlani bayon qiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich bilim, metodlar, videodarslar, o'yinlar bilan ishslash, o'qituvchi – o'quvchi kombinatsiyasi.

Angaliyalik olim Djon Lokkning aytishicha:"Dunyoga kelgan yangi chaqaloqning ruhini «top-toza paxtaga» o'xshatadi. Bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo kattalar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday inson bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi, bola hayotdan oladigan tajribaga, boshqalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir ".^[1]

Bolalar ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar qiziqqon bo'lishadi, shuning uchun har xil o'yinlar, multfilmlar bilan o'tiladigan darslar ularning nafaqat e'tiborini jalg' etadi, balki yangi narsalarni o'rganishga ruhlantiradi. Darsni boshlab, salomlashgandan so'ng birdan uy vazifalarni tekshirish yoki yangi mavzuni tushuntirmasdan, avval o'quvchilarning kayfiyatini ko'tarish uchun har xil jismoniy mashqlar bajartirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 5-10 marta qo'llarini ko'tarib, keng yozish ularni tetiklantiradi. Bundan tashqari, darsda o'tilgan yangi so'zlarni har xil o'yinlar yordami o'quvchilar eslab qolishganini tekshirish mumkin. Quyidagi metodlar bolalarga darsni o'zlashtirishlari uchun osonlashtiradi:

“Video topishmoq” metodi – bolalarda izohsiz video materiallari ketma-ket

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ravishda qo'yib beriladigan o'yin turi. 1. Bir nechta videolavhalar namoyishi; 2. Lavhalarda jarayonlar o'quvchilar tomonidan baholanadi; 3. O'qituvchi savollariga javob beriladi.

“Rolli o'yinlar” – vaziyatdan kelib chiqib o'ynaladigan metod. Bunda o'quvchilar taksida, avtobus yoki do'konda boshqa birov bilan ko'rishgandagi holat namoyish etiladi. Bolalarda vaziyatdan qanday chiqib ketish, chet tilidagi aloqador so'zlardan qanday foydalanish o'rganiladi. [2]

“Object” – so'z boyligini 50%ga oshiruvchi so'z o'yini. Bunda stol ustidagi 15 xil narsalar xotiraga saqlanadi, doskaga bu predmetlar nomi yoziladi. [3]

Albatta bu metodlar bolalarda qiziqish uyg'otadi, ammo o'quvchilar uchun ta'riflovchi so'zlar ko'proq samara beradi. Ushbu so'zlar chet tilida aytilsa va qo'shimcha qo'shilsa, bolalar ko'proq harakat qilishadi. Ya'ni o'zi haqida yaxshi so'z eshitgan bola yana yangi foydali yumushlar bilan band bo'lishni istaydi. Bu esa uning o'qituvchiga nisbatan mehrini oshiradi. O'qituvchi va o'quvchi kombinatsiyasi aynan shu yerda vujudga keladi. Bola psixologiyasi juda ham nozik narsa, ammo bu murakkab tuzilmani oddiy va qiziq muhit, o'ziga jalb qiluvchi harakatlarning o'rni yetarli.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalari bilan boyib kelayotganbu zamon bolalari ucun oddiy matnni o'qib, savol-javob o'tkazish zerikarli bo'lib qoladi. Ular har kuni oldin ishlatilmagan mashg'ulot va jumboqli topshiriq o'yinlar Ichida yashashni xohlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusenjonova M.F “Bolalarga ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish”.
2. Toliboyeva S.J. (2020) Teaching intercultural communication in English Science and Education, 1.
3. Po'latova M.D OpenScience.uz
4. Zubaydova. N.N. Vocabulary task//. “Kasbiy fanlar metodikasi”,2016.
5. Zubaydova. N.N. The teaching of English for specific purposes//. “Scientific researchers for development future International conference Proceedings”,2019.